

Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga ishlangan zarbof gilam

"Xamsa" asariga ishlangan zarbof gilam. Gilamning qoq markazida to'q qizil va qizil rang duxobadan zar iplarda islimiylar bilan to'rtburchak shakl ichida siyohrang fonda Alisher Navoiy siymosi gavdalantirilgan.



Uning o'ng tarafida Shirin va harsang toshni ko'tarayotgan Farhod, quyiroqda jang qilayotgan ikki otlig askar tasvirlangan. Gilamning chap yuqori burchagida tozi it bilan ov qilayotgan shoh Bahrom, o'rta qismida esa ikki ohu o'rtasida Majnun va quyiroqda Layli surati o'z aksini topgan. Kompozitsiya asosida drap, baxmal, shoyi gazlamalari va ularga zar iplardan bezaklar berilgan.

Asar 1969-yilda Buxoro zardo'zlik fabrikasida tayyorlangan. Mualliflari N.V.Nam va M.Axmedova. O'lchami 255x500sm. Bu zarbof gilam o'zbek zardo'zlik san'atining noyob namunasi bo'lib, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining noyob ko'rgazma materiallaridan biri hisoblanadi.